

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA SIFAT (RUSCHA ASLIYAT VA O'ZBEKCHA TARJIMALAR ASOSIDA)

Yorkinoy KHAMRAEVA*

Annotatsiya: Maqolada Chingiz Aytmatov asarlarida qo'llangan sifat so'z turkumi qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda muallifning rus tilida yozilgan asarlari hamda ularning o'zbek tiliga qilingan tarjimalariga murojaat etilgan. Ma'lumki, o'zbek tilida ham, rus tilida ham sifatlar eng muhim so'z turkumlaridan biri bo'lib, belgi ifodalashda asosiy o'rin tutadi. Qiyoslanayotgan tillarda sifat-leksemalar narsa-hodisalarni aniqlashtirish, konkretlashtirish, ularga hissiy rang berish vazifasini bajarishi bilan ajralib turadi va bu xususiyati ularni kundalik muloqot jarayoni hamda badiiy nutqning ajralmas qismiga aylantiradi. Maqolada o'zbek va rus tillari materiallari asosida Chingiz Aytmatov asarlarida qo'llangan sifatlarni qiyosiy o'rganish orqali o'zbekcha va ruscha sifat-leksemalar o'rtasidagi o'xshash jihatlar, shuningdek, ularning farqli, o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Chingiz Aytmatov asarlarida qahramonlar ruhiy holati, obrazlarning tashqi qiyofasi, tabiat, atrof-muhit tavsifini berishda sifat-leksemalardan metaforalar, evfemizmlar va boshqalar bilan bir qatorda badiiy tasvir vositasi o'laroq keng foydalanilgan. Yozuvchi sifatlardan badiiy va ruhiy ta'sir uchun foydalanishda konkretlashtirish va detallashtirish, emotsional bo'yoqlar berish, ramziylashtirish, qarshilantirish va ziddiyatga qo'yish, nazmiy badiiylilik yaratish, mubola'a qilish kabi bir qator usullarni samarali qo'llagan. O'zbek tarjimonlari esa Aytmatov asarlarini boshqa tilda qayta yaratishda ushbu birliklarni ona tilimizga mohirona o'girishgan. Sifat so'z turkumini agglutinatil bo'lgan o'zbek hamda flektiv tillar oilasiga mansub rus tili materiallari asosida qiyosiy o'rganish turkiy sifatning asl mohiyati va leksik grammatik xususiyatlarini konkretlashtirishga yordam beradi.

Kalit So'Zlar: *Chingiz Aytmatov, Sifat, Belgi, Xususiyat, Badiiy Tasvir Vositasi.*

Adjective in the Works of Chingiz Aytmatov (Based on Russian Originals and Uzbek Translations)

Abstract: In the article the adjectives are compared which are used in Chingiz Aytmatov's works. In the implementation of this research, the author's works written in Russian and their translations into Uzbek were learnt. It is obvious that the adjectives are one of the most important word groups in both Uzbek and Russian, and they play a key role in character expression. In the languages being compared, adjective-lexemes are distinguished by the fact that they perform the task of clarifying, concretizing objects and giving them an emotional colour.

Based on Uzbek and Russian materials, similarities between Uzbek and Russian adjective-lexemes are compared and different, unique characteristics of them are also shown in the article.

In Chingiz Aytmatov's works, adjective-lexemes are widely used as a means of artistic representation, along with metaphors, euphemisms and others in describing the mental state of characters through the appearance of personality, nature, and environment. The writer effectively used a number of methods, such as concretization and detailing, giving emotional colours, symbolizing, opposing and contrasting, creating poetic art, and exaggeration in the use of adjectives for fiction effect. Uzbek translators skillfully translated these units into our native language while re-creating Aytmatov's works in another language. A comparative study of the adjective word family based on materials from Uzbek, an agglutinative language, and Russian, a member of the inflectional language family, helps to concretize the true essence and lexical grammatical properties of the Turkic adjective.

Key Words: *Chingiz Aytmatov, Quality, Sign, Feature, Artistic Means of Representation.*

Kirish

Sifat eng muhim so'z turkumlaridan biri bo'lib, u narsa-hodisalarning belgilarini tasvirlashda asosiy o'rin tutadi. Lingvistik aloqa jarayonida sifatlar narsa-hodisalarni aniqlashtirish, konkretlashtirish, ularga hissiy rang berish vazifasini bajarishi bilan ajralib turadi va bu xususiyati ularni bir tomondan, kundalik muloqot jarayonining, ikkinchi tomondan badiiy nutqning ajralmas qismiga aylantiradi. Sifat so'z turkumi turli ilmiy adabiyotlarda har xil tavsiflangan. O'zbekcha sifatlarda belgi ma'nosini ifodalovchi maxsus morfologik ko'rsatkichlar yo'q. Ba'zi so'zlarning ham narsa-hodisa, ham belgi bildirish uchun qo'llanishi shu bilan belgilanadi. Dunyo tilshunosligi, shu jumladan, turkologiyada sifat so'z turkumiga bagishlangan bir qator ishlar mavjud. Tilshunos M.Sodiqova qozoq-qirg'iz, turk-tatar tillari

* Dots., PhD, Department of Russian Language and Literature of Karshi State University, e-mail: <https://www.qarshidu.uz/oz>

xususiyatlari borasida ish olib borgan P.M.Melioranskiy va M.A.Kazembek kabi tilshunoslar sifat soʻz turkumini alohida turkum guruhi oʻlaroq ajratib koʻrsatganligini qayd etadi. (Sodiqova, 1974: 61). Tilshunos A.N.Kononov turkiy tillarda belgi bildiruvchi leksemalar, yaʼni sifatlarning semantik jihatlarini tahlil qilgan (Kononov, 1978: 158).

Chingiz Aytmatovning rus tilida yozilgan asarlarida sifatlarning qoʻllanishi va ushbu birliklarning oʻzbek tilidagi tarjimalarda berilishini qiyosiy tahlil qilish orqali biz oʻzbekcha va ruscha sifat-leksemalar oʻrtasidagi umumiyliklar hamda genetik va tipologik ihatdan keskin farqlanuvchi ikki tilda mavjud bunday birliklarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va koʻrsatib berishga harakat qildik.

Tadqiqot metodlari va adabiyotlar tahlili. Maqolada tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-chogishtirma hamda ziddiyatga qoʻyish usullaridan, shuningdek oʻzbek va rus tillaridagi sifat soʻz turkumiga doir boy ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Dunyo tilshunosligi, shu jumladan, turkologiyada sifat soʻz turkumiga bagʻishlangan tadqiqotlar bisyor boʻlib, ularda sifatlarning leksik-semantik va morfologik-sintaktik xususiyatlari oʻrganilgan. Tilshunos M.Sodiqova qozoq-qirgʻiz, turk-tatar tillari xususiyatlari borasida ish olib borgan P.M.Melioranskiy va M.A.Kazembek kabi tilshunoslar sifat soʻz turkumini alohida turkum guruhi oʻlaroq ajratib koʻrsatganligini qayd etadi. (Sodiqova, 1974: 61). Tilshunos A.N.Kononov turkiy tillarda belgi bildiruvchi leksemalar, yaʼni sifatlarning semantik jihatlarini tahlil qilgan (Kononov, 1978: 158). Rus tilshunosligida sifatlarning tadqiqi F.Buslayev, A.Potebnya, A.Shaxmatov, L.Yakubinskiy, V.Vinogradov, N.Shvedova, E.Zemskaya, V.Ivanov, A.Ufimseva kabi bir qator olimlarning nomlari bilan bogʻliq. Bu haqida Y.Xamrayevaning “Sifat badiiy tasvir vositasi vazifasida” monografiyasidan batafsil maʼlumot olish mumkin (Xamrayeva, 2025: 7-11).

1. Sifat Soʻz Turkumining Kategorial Maʼnosi va Funksional Xususiyatlari.

Dunyo tilshunosligida, jumladan turkologiyada, sifat soʻz turkumi tadqiqiga bagʻishlangan bir qator ishlar mavjud. Rus olimi V.V.Vinogradov “Sifat bu ot soʻz turkumidan keyingi oʻrinda turadigan eng katta soʻzlar armiyasidir” - deb taʼrif bergan boʻlsa (Vinogradov, 1986: 158), akademik Gʻ.Abdurahmonov “oʻzbek tilida bu turkum narsa, voqea-hodisa va holatning belgi-xususiyatlarini bildirishga xizmat qiluvchi soʻzlarni oʻz ichiga olishini” taʼkidlaydi (Abdurahmonov va boshqalar, 1975: 271).

Akademik Azim Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da ushbu turkum soʻzlarga quyidagicha taʼrif beriladi:

«**SIFAT.** Predmet belgisini bildiruvchi soʻzlar turkumi. Grammatikada belgi soʻzi keng tushunchali boʻlib, u rang, maza-taʼm, hajm, xususiyat va shu kabilarni bildiradi: *qizil, shirin, keng, sevimli, qudratli* va b.» (Hojiyev, 2002: 91).

Koʻrib turganimizdek, lugʻatda oʻzbek tilidagi sifatlarga izoh berishda rus tili andozalariga tayanilgan. Chunki rus tilida, darhaqiqat, sifatlarning “predmetning belgisini bildiruvchi soʻzlar turkumi” deya taʼriflanadi. Toʻgʻri, “belgi” ifodalashiga koʻra oʻzbekcha va ruscha sifatlarni bir toifaga kiritish mumkin. Ammo bu oʻxshashlik shu nuqtada yakun topadi. Binobarin, semantik jihatdan oʻzbek tilida bunday soʻzlar turkumi 2 turga, rus tilidagilari esa 3 turga ajratilishidan tashqari, ruscha sifatlarning ot yoki olmoshlar bilan tobeʼ munosabatga kirishish jarayonida turli grammatik oʻzgarishlarga duch keladi, yaʼni aniqlanmish bilan rod, son va kelishikda moslashadi, oʻzbek tilida esa sifatlarning xuddi ravishlar kabi oʻzgarish soʻzlar boʻlganligi sababli, ular oʻzi aniqlayotgan otlar bilan bitishuv aloqasiga kirishadi. Oʻzbekcha sifatlarning ruscha shunday turkum soʻzlardan keskin farqlanuvchi yana bir jihati shundaki, ular nafaqat predmet (keng maʼnoda: kishilar, narsa-hodisalar, voqealar), balki harakat va holatning ham belgisini ifodalaydi, shunga koʻra gapda hol vazifasini ham bajara oladi. Bunga “*Yaxshi bola yaxshi oʻqiydi*” yoki “*Chirovli raqqosa chirovli oʻynadi*” tarzidagi yuzlab gaplarni misol qilib keltirish mumkin. Eʼtibor berilsa, har ikki gap tarkibida takror qoʻllangan sifatlarning birinchi

qo'nimda ot bilan bog'lanib, uning belgisini aniqlamoqda, ikkinchisida esa fe'lga tobe'lanib, gapda hol vazifasini bajarmoqda. Bu gaplarni rus tiliga tarjima qilsak, albatta, o'tning aniqlovchisi vazifasida sifat so'zlardan, holat ifodasi uchun esa ravishlardan foydalangan bo'lardik: «*Xoroshiy malchik xorosho uchitsya*»; «*Krasivaya tansovshitsa krasivo stansevala*». Zero, rus tilidagi sifat-leksemalarning kategorial mansubligini belgilovchi aniq grammatik ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, bular sifatlarning sintaktik-funksional imkoniyatlari ko'lamiga ma'lum ma'noda chegaralar qo'yadi. Shu sababli ruscha sifatlar gapda faqat aniqlovchi vazifasida kela oladi. Ularning kesimlikka xoslangan qisqa shakllari esa alohida masaladir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida mustaqillikdan keyin ishlab chiqilgan grammatik manbalarda sifat so'z turkumiga anchayin haqqoniy baho berilgan, Jumladan, 2005-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida sifat "barqaror va turg'un belgilarni ifodalashi jihatidan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turishi" aytiladi (Sayfullayeva va boshqalar, 2005: 114).

Ushbu maqolada biz o'zbek va rus tillaridagi sifat so'z turkumining grammatik xususiyatlarini nazardan soqit qilgan holda, ularning adabiy matnlarda, xususan, Chingiz Aytmatov asarlarida badiiy tasvir vositasi o'laroq qo'llanishini tahlil qilishga urindik. Chunki Aytmatov asarlarida sifat-leksemalardan metaforalar, evfemizmlar va boshqalar bilan bir qatorda badiiy tasvir vositasi sifatida keng foydalanilganini ko'rish mumkin.

3. Chingiz Aytmatov Asarlarida Sifatlarning Badiiy Tasvir Vositasi O'laroq Qo'llanishi.

Ta'kidlash joizki, Chingiz Aytmatov XX asrning eng ko'zga ko'ringan adiblaridan biri bo'lib, uning ijodiga insonparvarlik, falsafiylik g'oyalari va xalq hikmatlari singdirilgan. Muallif tabiat, odamlar va hodisalarning chuqur va ko'p qatlamli obrazlarini yaratishdagi mahorati bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi. Chingiz Aytmatov o'zbek kitobxonlari uchun yaqindan tanish bo'lib, uning deyarli barcha asarlari istisnosiz ravishda o'zbek tiliga o'girilgan.

Yozuvchining asarlarida sifatlar qahramonlarning hissiy holatlarini ochib berishi bilan birga, tabiat, atrof-muhitni tasvirlashda ham asosiy o'rin tutadi. Uning asarlari nafaqat kuchli syujet va voqe'lik, balki turli madaniy an'analar sintezi bo'lgan o'ziga xos til uslubi bilan ham farqlanib turadi. Aytmatovcha matnlarning lingvistik xususiyatlari, shuningdek, ekspressivlikni yaratish va mushtariylar ongiga kirib borish usullari yozuvchi ijodining muhim qirralarini ochib beradi. Aytmatov qahramonlari oddiy qirg'iz odamlari bo'lib, ular bizga tanishlarimiz, qarindoshlarimiz, do'stlarimiz yoki dushmanlarimizni, ba'zan esa hatto o'zimizni eslatib turadi. Lekin muallif qirg'iz xalqi hayotini umuminsoniy va umummilliy ahamiyati nuqtai nazaridan aks ettirgan, shuning uchun chinakam so'z ustasi sifatida dunyo adabiyotining badiiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'sha olgan.

Jumladan, adibning "Qiyomat" asari o'zbek kitobxonlari tomonidan katta qiziqish va hayrat bilan kutib olingan asarlardan biri bo'lgan. Ushbu roman o'zbek tilida hali kitob holida chop etilmasdan turib, 1987 yilda Ibrohim G'ofurov tomonidan tarjima qilingan hamda "Kunda" nomi bilan "Sharq yulduzi" jurnalida bosib chiqarilgan edi.

Izohli lug'atda bu so'zga "daraxtning ost qismi", "to'nka", "ustida biron narsani chopish uchun qilingan maxsus g'o'la" kabi izohlar keltirilgan (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: 429-230). To'g'ri, tarixda ushbu so'zning "qatl vaqtida mahkumlarning boshini kesishga mo'ljallangan to'nka" ma'nosi ham bo'lgan. Ammo hozirgi zamon kishilari ongida bu ma'no o'z o'rnini yo'qotgan. Shuning uchun keyinchalik asar tarjimon tomonidan o'zgartirilib, "Qiyomat" nomi ostida kitob holida nashr etilgandi. Bu nom romanning mazmun-mohiyatini ham, muallifning dunyo oxirati haqidagi faryodi, yer yuzidagi hamma narsaning halokatli fojiasi to'g'risidagi ogohlantirishini ham o'zida mujassam eta olgan. Tarjimonning muvaffaqiyati shundaki, u "Qiyomat"ni o'zbek tilida qayta jonlantirish orqali

kitobxonlarimizga yozuvchining navbatdagi ijodiy qadami bilan yaqindan tanishish hamda asar atrofida yuzaga kelgan qizg'in bahs-munozaralarda faol ishtirok etish imkoniyatini berdi. Ibrohim G'ofurov asar mazmunini o'quvchilarimizga imkon qadar to'g'ri yetkazishga, asar syujeti va tuzilishiga putur yetkazmagan holda Aytmatov nasrining badiiy xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilgan.

Tarjimashunos olim G'aybullas Salom ta'kidlaganidek, muayyan asarni tarjima qilish uchun har bir so'zning mazmun-mohiyatini, shuningdek, u bilan bog'liq grammatik qoidalarni bilish yetarli emas, tarjimon yozuvchining tilini his qilishi zarur (Salomov, 1983: 77). "Qiyomat"ning tarjimonida aynan shunday his mavjudligi sababli, u dunyoni muallifning ko'zlari bilan ko'ra olgan. Misol uchun, asliyatda quyidagi jummalarni uchratamiz: «*Tashchaynar pripodnyal svoyu uglovatuyu, tyajelovesnuyu golovu*» (Aytmatov, 1988: 31). Tarjimada: «*Toshchaynar guvalakdek qiyshiq va cho'ng kallasini ko'tardi*» (Aytmatov, 2019: 30).

"Ruscha-o'zbekcha lug'at"da «ugol» so'zining ma'nolari: 1. «burchak»; 2. «muyulish», «burilish» tarzida keltirilgan, «uglovatyi» so'zining tarjimasi esa: 1. «serqirra, u yer-bu yeri turtib chiqqan, g'adir-budir» 2. *ko'chma*. «beso'naqay, qo'pol, dag'al» so'zlari bilan berilgan (Ruscha-o'zbekcha lug'at, 1984: 618).

Demak, rus tilida «uglovatyi» so'zining semantik ko'lami ancha keng bo'lib, I.G'ofurov tarjimada oddiygina shu «burchaksimon» so'zidan foydalanib qo'ya qolishi mumkin edi. Ammo tarjimon so'zma-so'z tarjima usulidan chekinib, chinakam so'z ustasi sifatida gapni boshqa "bo'yoqlar" bilan bezatadi.

Izohli lug'atda "guvalak" so'ziga berilgan quyidagi izohlarni uchratamiz:

"**GUVALA(K)** Loydan qo'lda yasali, oftobda quritilgan, tagi yassi cho'zinchoq qurilish materiali" (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: 514).

"Guvalak" so'zi o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lganligi uchun, tarjimon bo'ring tashqi qiyofasini tasvirlashda, xususan, uning boshi haqida gap ketganda mohirlik bilan "guvalakdek" ta'rifini tanlagan. «Tyajelovesniy» so'zi o'rnida esa "og'ir vaznli" jumlasini emas, "cho'ng" so'zini qo'llaydi.

"**CHO'NG** [xit.] Katta, ulkan; zo'r; kuchli" (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2008: 524).

Guvohi bo'lganimizdek, izohli lug'atda mazkur so'zning "og'ir" degan ma'nosi qayd etilmagan. Ammo tarjimon ona tilimizda badiiy matnni qayta bunyod etishda o'zbek tili sohiblari ongida mavjud bo'lgan bu so'zga yangi ma'no "yuklaydi" va shu orqali sifat-leksemi badiiy tasvir vositasi o'laroq yanada faollashtiradi. Demak, I.G'ofurov o'zbek kitobxonlari "birovnikini" emas, "o'zinikini" o'qiyotgandek his etishlari uchun harakat qilgan. Yozuvchi tarjima ustida ishlash jarayonida o'zbek tilining so'z va iboralari boyligidan keng foydalangan. Shuning uchun "Qiyomat"ning o'zbekcha variantida ko'plab iboralar, birikmalar, ko'p sonli badiiy tasvir vositalarini uchratish mumkin. Masalan, asliyatda: «*Pervoe sovmestnoe leto sineglazoy Akbari i Tashchaynara*».

Ruschadan o'zbekchaga aynan tarjima qilinganda "*sovmestnoe*" so'zi "birgalikda olib boriladigan", "qo'shma", "umumiy" kabi ma'nolarni ifodalaydi (Ruscha-o'zbekcha lug'at, 1984: 464).

Endi tarjimaga nazar solamiz:

«*Ko'kko'z Akbara bilan Toshchaynarning boshlari qovushgan birinchi yoz kunlari edi*».

Demak, bu o'rinda ham tarjimon muallif tomonidan qo'llangan sifat o'rnida birgina sifat-lekseman emas, "boshi qovushmoq" degan ajoyib iboradan foydalanadi.

Badiiy asarda so'zning nominativ-tasviriy ma'nosi yangilanadi, faollashgan so'zlar kitobxon tasavvurida badiiy voqelikni qayta gavdalandiradi. Shu tariqa kitobxonlar tasavvurida aks etgan voqelik muallifning qarashlari orqali gavdalanadi. Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, asliyatda obraz va ifodani o'zida mujassam etgan badiiy matn yaratishda bu

birliklarning ma'lum bir tartib va nisbatda joylashuvi qanchalik ahamiyatli bo'lsa, tarjimada so'z tanlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aksariyat hollarda Chingiz Aytmatov tomonidan qo'llangan so'zlar ko'pma'noli bo'lib, ularning ma'nosi faqat kontekstda namoyon bo'ladi va bu holat kitobxon voqelikni o'z dunyoqarashi orqali talqin qilishi uchun keng ufqlar ochadi. Bundan tashqari, yozuvchi tilida qahramonlarning ichki dunyosini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan elementlarni uchratish mumkin. Misol uchun, "Jamila" qissasi tili turli hissiy bo'yoqlar bilan to'yingan bo'lib, ular bosh qahramonning his-tuyg'ulari, qalb tug'yoni, uning ruhiy holatini hayotiy o'zgarishlar bilan parallel ravishda ifodalash imkonini beradi: "*Djamila bila xorosha soboy. Stroynaya, statnaya, s pryamimi jestkimi volosami, zapletennimi v dve tugie, tyajelie kosi, ona lovko povyazivala svoyu beluro kosinku, chut' naikosok spuskaya ee na lob, i eto ochen' shlo ey i krasivo ottenyalo smugluo koju gladkogo lisa. Kogda Djamila smeyalas', ee issinya-chernie mindalevidnie glaza vspixivali molodim zadorom, a kogda ona vdrug nachinala pet' solenie ail'nie kupleti, v ee krasivix glazax poyavlyalsya nedevidchiy blesk*" (Aytmatov, 2018: 38).

Ushbu tavsifning o'zidan yozuvchining Jamilaga bo'lgan alohida munosabatini sezish qiyin emas. Qizning tashqi qiyofasi hamda fe'l-atvori to'g'risidagi jummalarni o'qir ekamniz, yozuvchi o'z qahramoniga nega qirg'iz xalqida u qadar keng tarqalmagan "Jamila" ismini tanlagani ma'lum bo'ladi. Chunki arab tilidan o'zlashgan bu ism "chiroyli" ma'nosini ifodalaydi. Muallif Jamila obrazini tavsiflashda qisqagina jumlada 16 ta sifat-leksemadan foydalangani alohida tahsinga sazovor.

Asar o'zbek tiliga Asil Rashidov tomonidan mohirona tarjima qilingan: "*Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. Ikki o'rim sochini boshiga chambarak qilib o'rab, ustidan tang'ib olgan oppoq durrasi uning bug'doyrang kulcha yuziga shunday yarashib tushar ediki, asti qo'yaverasiz. Jamila kulganda uning shaxlo ko'zlarida navqiron yoshlik barq urar, shunda u beixtiyor qaddini rostlab ovulning sho'x laparini kuylab yuborardi*" (Aytmatov, 2023: 38).

"Jamila" asari Sharq ayollari ko'p asrlik salbiy urf-odatlar, bid'at va xurofot tufayli haququqlaridan mahrum qilingan jamiyatni qoralaydigan, ularning sevish-sevilish, o'z erki bilan turmush qurish kabi huquqlarini ulug'laydigan asar bo'lish bilan birga, Chingiz Aytmatov o'z orzusini ro'yobga chiqargan chinakam go'zallik ifodasidir. Bundan tashqari, Aytmatov asarlarining lingvistik jihatlari g'oya va obrazlarni yetkazishda asosiy o'rin tutadi. Aytmatovning tili tarix, madaniyat va falsafani bog'lovchi bir bo'g'in bo'lganligi sababli, uning asarlari yillar davomida o'z dolzarbligi va qimmatini saqlab qolaveradi. Yozuvchining asarlarida sifatlardan badiiy va ruhiy ta'sir uchun foydalanishning quyidagi usullarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Konkretlashtirish va detallashtirish: Sifatlar biror narsani aniqlashtirishga, batafsil tavsiflashga yordam beradi va shu orqali kitobxon tasavvurida aniq tasvirni yaratadi. Masalan: *blednoye litso – yuzi bo'zday oqargan, xolodnaya tishina – sovuq sukunat*. Bu iboraviy birikmalar aniq tasavvur hosil qiladi hamda asarning tavsiriy muhitini muayyanlashtiradi.

2. Emotsional bo'yoqlar: Sifatlar ehtiros, qayg'u, g'am, shodlik, quvonch, baxt yoki boshqa his-tuyg'ularni ifodalash orqali hissiy idrokni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Masalan: *smelaya dusha – jasur qalb, gorkaya utrata – og'ir judolik*. Bu o'rinda sifatlar hissiy fonni kuchaytiradi va kitobxonga muallif tomonidan tasvirlangan voqealar yoki belgilarga munosabatini tushunishga yordam beradi. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilida "judolik" so'zi odatda "achchiq" sifati bilan birikmaydi, shu bois "og'ir" so'zi bilan almashtirilgan.

3. Ramziylashtirish: Aytmatov asarlarida qo'llangan sifatlar ko'pma'noli bo'lib, ular turli simvollarni ifodalaydi va ramziy ma'nolar kasb etadi. Masalan: *temniy les – qorong'i o'rmon, prokladniy veter – sovuq shamol* birikmalari sirli, dahshatli narsa bilan bog'liq assotsiatsiyalarni uyg'otadi.

4. Qarshilantirish va ziddiyatga qo'yish: Sifatlar asardagi qarama-qarshiliklar yoki dinamikani idrok etishni kuchaytirishga yordam beradigan ziddiyatlarni yaratish uchun

qo'llanadi. Masalan: *svetliy i temniy – yorug' va qorong'u, goryachaya zima – issiq qish*. Ushbu brikmalarda qo'llangan qarama-qarshi sifatlar kishi diqqatini tortadi va narsalarning tabiati haqida o'ylash uchun turtki beradi.

5. Nazmiy badiiylik yaratish: Badiiy matnda sifatlar ko'pincha ma'lum bir ritm, tovush va tasvirni yaratish uchun qo'llanadi. Masalan: *tixiye vodi – tinch oqar suvlar, beskraynee pole – bepoyon dala* kabi birikmalar badiiy matnning musiqiyiligini ta'kidlash orqali asar tiliga muloyimlik, sillqlik she'riylik bag'ishlaydi.

6. Mubola'a qilish. Sifatlar asarda ba'zan bo'rttirib ko'rsatish, mubolag'a qilish uchun qo'llaniladi, bu esa badiiy matnda ijobiy, ifodali yoki istehzoli, satirik effekt yaratadi. Masalan: *neveroyatno krasivo – bag'oyat go'zal, ogromneyshiy strax – otning kallasiday qo'rquv*. Bunday birikmalardagi sifatlar ta'sirni kuchaytirib, narsa-hodisaning roli yoki ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. Ahamiyat berilsa, bu qo'nimda ruschadagi "ogromneyshiy" so'zi o'rnida o'zbek tilida shunchaki "eng katta qo'rquv" birikmasi emas, "otning kallasiday" iborasini qo'llash maqsadga muvofiq deb topilgan.

7. Badiiy ifodalar: Asarda badiiy matn mazmuniga chuqur ifoda qo'shadigan metafora, jonlantirish kabi bir qator ifodalardan foydalaniladi. Masalan: *grustniye oblaka – g'amgin bulutlar* (jonlantirish); *jeltiye slezi – sariq ko'z yoshlar* (metafora) va h.k.

Xulosa

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, badiiy asarlardagi sifat nafaqat obyektlarning xususiyatlarini bildiradi, balki muallifga hissiy muhitni yetkazishda yordam beradi, kitobxonning matnni idrok etishiga ta'sir qiluvchi ko'p qirrali va yorqin tasvirlarni yaratadi. Belgilarni ifodalash usullarining xilma-xilligi rus tilidagi sifatlar obyekt yoki subyekt xususiyatlarining keng spektrini bildiradi olishini tasdiqladi, o'zbekcha sifatlar esa kontekst va ramziy ma'nolarga tayangan holda, o'zbek madaniyati paradigmasi doirasidagi muhim belgi-xususiyatlarni ifodalaydi. Demak, o'zbek va rus tillaridagi sifatlar o'rtasidagi farq o'zbek tilining grammatik jihatdan qulayligini, rus tilida esa sifat+ot tipidagi birikmalar orasida qat'iy moslashuv zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilidagi sifatlar boy shakllanish va qo'llanish tizimiga ega bo'lib, ular predmet, shaxs va hodisalarni tasvirlashda ahamiyatlidir. Binobarin, Chingiz Aytmatov asarlarida sifatlar badiiy tasvir va ifoda vositasi o'laroq jonli, esda qolarli obrazlar yaratish, asar matnini hissiy bo'yoqlar bilan boyitish uchun qo'llangan. Sifat-leksemalar muallifga obyektlar, hodisalar va belgilarning nafaqat tashqi, balki ichki xususiyatlarini ham teran tasvirlashda yordam beradi va bu bilan kitobxonning idrokini kuchaytiradi, asar mazmuni bilan to'la-to'kis tanishish imkonini beradi. Sifatlardagi ma'no kuchaytirishga xizmat qiluvchi stilistik belgilari ikki turga bo'linadi: belgining ko'pligini ifodalovchi sifatlar va xususiyatning kuchayish shaklini hosil qiluvchi sifatlar. Garchi ikkalasi ham belgi ifodasini mustahkamlovchi vosita bo'lib ko'rinsa-da, ular ikki xil uslubiy maqsadga xizmat qiladi. Sintaktik qurilmalarda ko'plik shaklidagi sifatning chegaralangan o'lchami kuzatilsa, badiiy matnda bunday ma'noni hosil qilishda takrorlardan foydalanish kifoya ekanligini ko'rishimiz mumkin, uslubiy vazifa esa ifodalangan predmetlarning belgi qamrovlari katta bo'lishini mumkinligi, ammo barchasi bir xil hajm va turga ega emasligini ko'rsatishdan iborat.

Badiiy asarni bir tildan boshqa tilga o'girishda yozuvchi shunchaki ikki tilli lug'atda berilgan so'zlar tarjimasini keltirib qo'yish bilan cheklana olmaydi. Tarjimon oldida muayyan tilda yozilgan badiiy asarni boshqa til sohiblariga yetkazishda uni o'z ona tilida qayta yaratish masalasi turadiki, u kuchli mahorat bilan lingvistik boyliklardan, so'zlar va iboralar majmuidan imkon qadar keng foydalanmog'i lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR

Hojiyev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*, Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti.

- Kononov, A.N. (1978). *Semantika svetooboznacheniy v turkskix yazikax*, Moskva.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – Toshkent: O'zM Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. – Toshkent: O'zM Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672 b.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild. – Toshkent: O'zM Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 608 b.
- Ruscha-o'zbekcha lug'at. II tom. – Toshkent: O'zS Bosh redaksiyasi, 1984. – 800 b.
- Sodiqova, M. (1974). *Hozirgi o'zbek tilida sifat*, Toshkent: Fan.
- Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*, Toshkent: O'qituvchi.
- Sayfullayeva, R., Mengliev, B. va boshqalar (2005). *Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya*, Toshkent.
- Vinogradov, V. V. (1986). *Russkiy yazik (grammaticheskoe ucheniye o slove)*, Izd. 3-e, ispr. Moskva: Visshaya shkola.
- Abdurahmonov, G'. va boshqalar (1975). *O'zbek tili grammatikasi. Morfologiya*, I tom, Toshkent: Fan.
- Aytmatov, Chingiz (1988). *Plaxa*, Nukus: Karakalpakstan.
- Aytmatov, Chingiz (2018). *Djamilya / Izbrannie proizvedeniya*, Toshkent: Generalnaya redaksiya izdatelsko-poligraficheskogo obshestva «Shark».
- Aytmatov, Chingiz (2019). *Qiyomat*, Toshkent: G'afur G'ulom.
- Aytmatov, Chingiz (2023). *Jamila*, Toshkent: Yoshlar matbuoti.
- Xamrayeva, Y. (2025). *Imya prilagatelnoye kak sredstvo xudojestvennoy virazitelnosti / Sifat badiiy tasvir vositasi vazifasida. Monografiya*, Qarshi: Big Makro World.

